

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik-tijorat Xalq banki tomonidan \_\_\_\_\_ yilda berilgan \_\_\_\_ -sonli ishonchnomaga asosan faoliyat yurituvchi Xalq banki [filial\_name] nomidan Boshqaruvchi [manager], bundan buyon “Bank” deb ataladigan, bir tomondan va o‘z nomidan yoki uning nomidan ish ko‘rvuchi fuqaro [client\_name], bundan buyon “Omonatchi” deb ataladigan, ikkinchi tomondan ushbu shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### **1. Shartnoma predmeti**

1.1. “Bank” “Omonatchi”dan pul mablag‘larini *talab qilib olinguncha* omonat turiga [acc] / [pers\_acc] hisobvarag‘iga [currency\_name] *milliy* valyutada *naqd pul yoki naqd pulsiz* shaklda qabul qiladi. “Bank” “Omonatchi”dan pul mablag‘larini *talab qilib olinguncha* omonat turiga [acc] / [pers\_acc] hisobvarag‘iga [currency\_name] *milliy* valyutada *naqd pul yoki naqd pulsizshaklda* qabul qiladi.

1.2. Omonat turining nomi “[dep\_name]” bo‘lib, topshirilayotgan mablag‘ miqdori [sum\_dep] ([sum\_dep\_str\_uz]), saqlash muddati omonatchining talabiga ko‘ra hisobvaraq to‘liq yopilgunga qadar, yillik 0% foiz to‘lovi bilan.

“[dep\_name]” omonatiga omonatchi tomonidan qo‘shimcha badal kiritish ko‘zda tutilgan.

1.3. Omonat hisobvarag‘iga pul kiritilgan sana [date\_open] kuni hisoblanadi, omonatni qaytarish sanasi esa [close\_date] kuni hisoblanadi.

### **2. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

2.1. Hisoblangan foizlar omonat yopilganda “[dep\_name]” omonati shartlariga muvofiq to‘lanadi.

2.2. Omonat summasiga foizlar omonat mablag‘i bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldindi kungacha bo‘lgan davrga hisoblanadi. “Omonatchi”ning hisobvarag‘i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag‘laridan foydalana olmagan davr uchun foizlar hisoblanmaydi yoki yozilmaydi.

2.3. “Omonatchi” yoki uning operatsiyasi sanksiya ta’siri doirasiga tushganda yoki tushish xavfi mavjud bo‘lganda, operatsiyani o‘rganish maqsadida qo‘shimcha ma’lumotlarni so‘rash, operatsiya miqdorini cheklash, operatsiyani cheklash (rad etish) yoki amalga oshirilayotgan operatsiyalar “Omonatchi”ning anketasidagi profiliga nomufofiq bo‘lgan hollarda xizmat ko‘rsatishni rad etish va “Omonatchi” bilan shartnomalarni bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

2.4. Amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan operatsiya oqibatida bankka nisbatan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanish xavfi mavjud bo‘lgan taqdirda bank “Omonatchi”ga hisobvaraq ochishni va operatsiyani amalga oshirishni rad etish huquqiga ega.

2.5. Bank, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagisi “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-1031-sonli Qonunida o‘rnatalgan tartibda Omonatchining bankdagi omonatini himoya qilinishini kafolatlaydi.

### **3. Tomonlarning javobgarligi**

3.1. Shartnoma majburiyatları bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda, tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

### **4. Nizolarni hal qilish**

4.1. Tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha yuzaga kelgan barcha bahsli holatlarni, kelishmovchiliklar va nizolarni muzokara yo‘li bilan yoki O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tegishli sud organlari orqali hal etadilar.

### **5. Fors-major holatlari**

5.1. Tomonlarning biri boshqa tomon oldida ushbu shartnoma bo‘yicha olgan majburiyatlarini fors-major holatlariда, ya’ni tomonlarning xohishi va istagidan tashqari vujudga kelgan hamda ularni oldindan ko‘ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo‘lmagan holatlarda (pul-kredit siyosatidagi denominatsiya, zilzila, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar) bajarmaganligi uchun javobgar bo‘lmaydi. Majburiyatni to‘liq bajarishdan ozod qilinishi uchun fors-major holatlari asos bo‘ladi.

### **6. Boshqa shartlar**

6.1. Shartnomani imzolash orqali “Omonatchi” O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 18-fevraldagisi “Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-1031-sonli Qonuni, bankning me’yoriy-huquqiy hujjalari hamda amaldagi tariflari bilan to‘liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi hamda ularga qat’iy rioya etadi.

6.2. Bank “Omonatchi” yoki uning vakillari topshirig‘iga binoan, bankning omonat hisobvarag‘ida turgan pul mablag‘lari bilan bank operatsiyalari bo‘yicha amalga oshirilgan xizmatlar uchun tomonlarning qo‘shimcha kelishuviga muvofiq bank Tarifiga asosan vositachilik haqi undirish huquqiga ega.